



ADABIYOT FIKR VA QALBNI TARBIYALAYDI

Usmonov Murodjon Ibrohim o'g'li

Successland o'quv markazi "Arab tili" katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda adabiyot darslarida berilayotgan bilim, hosil qilinayotgan ko'nikma va malakalarni tiklab borish, zarur bo'lganda takrorlash yo'li bilan qayta o'rganishga ehtiyoj kuchli. Adabiyot fikr va qalbni tarbiyalaydi.

Kalit so'zlar: adabiyot, obraz, ifodali o'qish, "Sahna", kitobxon, "Muloqot", "Bahs - Munozara".

Har bir inson hayoti davomida duch kelgan muammolarga javobni o'z tarbiyasidan izlaydi. Bunday hayotiy tajriba hosil bo'lishi uchun esa yaxshi kitobxon sifatida voqealar – u kechinmalarni o'z qalbidan o'tkazish, o'zi tanlab olgan obrazning tarafdori bo'lib uning yutuqlari, quvonch qayg'usi-yu, mag'lubiyatini ham o'ziniki qilib olishi kerak bo'ladi.

O'quvchilar tafakkurini o'stirish, so'z boyligini oshirish, estetik didi ma'naviyatini yuksaltirishda badiiy asar tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Unda o'quvchining o'qilayotgan asar yuzasidan mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash hamda taqdimot qilish, kezi kelganda o'z hayotlarida o'rganganlaridan xulosalar chiqarish masalalari shakllantiriladi.

Bu yorug' dunyoda har bir inson o'z kasbini fidoyisi, uning yetuk mutaxassisi

bo'lishi, o'z o'rnida izlanuvchan, zamon bilan hamnafas bo'lishi zarurdir. Bugun iqtisodiy, ma'naviy siyosiy jihatdan yuksalib borayotgan yurtimizda yosh avlod tarbiyasi, qolaversa ertanggi kun egalarini komil, fozil, ma'nan boy qilib tarbiyalash biz pedagoglarning kundalik faoliyatiga ko'zlagan maqsadimiz bo'lmog'i lozim.

Maktab inson hayotiga poydevor sanaladi. Poydevor qanchalik mustahkam bo'lsa, farzandlarimiz ertaga yurt koriga yaraydigan, yot g'oyalarga quloq qo'ymaydigan dono va baxtli farzandlar bo'lib yetishadilar. Har bir dars mashg'ulotimizda o'z o'quvchilarimizda ilg'or g'oyalar bilan bilim berar ekanmiz ona zaminni e'zozlashga uni ko'z qorachig'idek asrashga undab yashamog'imiz lozim.

Bugun biz uztozlar ta'lim - tarbiya jarayonida tinimsiz izlanib, jamiyatimiz taraqqiyoti yo'lida yangicha zamonaviy dars mashg'ulotlari, ijodiy jarayon orqali farzandlarimizni chuqur bilim egalari qilib tarbiyalamog'imiz darkordir. Har bir o'qituvchi dars mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rar ekan ta'lim standartlariga amal qilgan holda faoliyat olib boradi. Bugungi kun



o'qituvchidan ijodkorlikni talab qiladi. Shundan kelib chiqqan holda ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqat madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi. O'quvchi yoshlarni dars mashg'ulotlarida ta'lim standartlari bo'yicha qo'yilgan me'yorlarni egallashlari uchun qo'llanadigan zamonaviy metodlar o'z o'rnida ijobiy natijalarga zamin bo'la oladi.

Dars o'tishning keng va zamonaviy metodlari, usullari rang-barang. Bu usullardan foydalanishda o'qituvchidan ijodkorona yondashuv talab etiladi. Dars mashg'ulotining shakllari borasida ta'lim standartlari xilma-xillikni talab etadi. "Sahna", "Muloqot", "Bahs-munozara", shakllari o'qituvchini o'z ustida mustaqil ishlashga undaydi. Darsning mazmuni va xarakteriga qarab xalqimizning boy ma'naviy merosidan, ma'naviy qadriyatlaridan samarali foydalanish. O'tilayotgan mavzuning mazmuniga bog'liq holda mustaqil yurtimizdagi o'zgarishlardan o'quvchi talabalarni xabardor qilish.

Dars o'qituvchi va o'quvchining ijobiy hamkorligiga asoslanishi lozim. Shundagina o'quvchilar mustaqil erkin fikrlay oladilar, irodalari tarbiyalanadi. Nutq madaniyati rivojlanadi. Muammoli vaziyat izlanishlar orqali o'z yo'lini topa oladilar. Bu borada adabiyot fanining o'rni va ahamiyati katta. Shu bois o'quvchilarni mutolaaga o'rgatish, oilaviy kitobxonlikni yo'lga qo'yish uchun adabiyot o'qituvchilarining ota-onalar bilan oilada kitob o'qish, bu borada muhokama o'tkazish, natijani kuzatish kabi masalalarda hamkorlik o'rnatish yaxshi natija berishi turgan gap. Shuningdek, 5-6-sinflarda milliy, qardosh va chet el yozuvchilarining sarguzashtlarga boy badiiy asarlarini o'qish va bolalarning taassurotlari bo'yicha suhbat uyushtirish hamda xulosa chiqarishga o'rgatish maqsadga muvofiq.

O'quvchilarni kitobga qiziqitirishning yana bir samarali usuli bu - darsni musobaqa tarzda tashkil etishdir. "Kim ko'p badiiy asar o'qigan?", "Kim she'rni ifodali yoddan aytadi?", "Kim ko'p dostonidan parcha yod olgan?", "Kim ko'p g'azal yod biladi?", "Kimning shaxsiy ijodiy ishlari chop etilgan?" mavzulariga sinflararo musobaqalar tashkil etilsa, o'quvchilar, albatta o'z iqtidorlarini namoyish etishga harakat qiladilar. Adabiyot darslarida ifodali o'qishga katta e'tibor qaratilishi.

O'qituvchi matnni bolalar qalbiga kirib boradigan darajada his qildirib, ifodali, ta'sirchan tarzda o'qishi, o'quvchi hissiyoti, tuyg'ularini qo'zg'ata olishi, atoqli san'atkorlar ijrosida o'qilgan, ertak qahramonlarining video lavhalarini taqdim qilishi va bolalarni shunday o'qishga o'rgatishi nafaqat fanga qiziqishni orttiradi, balki bola qalbiga ruhiy orom beradi, estetik didini o'stiradi, she'riyatga, kitob mutolaasiga mehr uyg'otadi. O'quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchilariga aylantira olish. Bolalarga mustaqil fikr bildirish, rad etish, isbot qilish, o'z fikrini himoya qilish imkonini yaratish.



Sinfdan tashqari tadbirlarda o'rganilgan asarlardan parchalarni sahnalashtirish, rollarga bo'lib o'qish, she'rxonlik, ruboiyxonlik kabi adabiy kecha va musobaqalar, uchrashuvlar tashkil qilish.

Rolli o'yin metodi.

Badiiy asar o'tilganda asarni rollarga bo'lib o'qish yoki sahnalashtirib tahlil qilish usuli ham o'ziga xos samara beradi. O'quvchi xotirasida umrbod muhrlanishiga sabab bo'ladi.

Badiiy asar tahlilida — Venn diagrammasi ham juda yaxshi samara beradi. Bu

diagramma orqali o'quvchilar o'rganilgan asar qahramonlarining o'xshash va farqli

chiqarishadi. Bunda o'quvchilarning erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalari shakllanadi — Venn diagrammasi metodi.

Bu metoddan ham shoir yoki yozuchi hayoti va jodini, badiiy asar qahramonlarini solishtirish qiyoslash, o'xshash va farqli tomonlarini topishda ham foydalanish mumkin.

Masalan: Abdulla Qodiriyning — O'tkan kunlar hamda Cho'lponning — Kecha va Kunduz romanlarini — Venn diagrammasi orqali tahlil qilish mumkin. Qahramonlar tahlil qilishda Zebi hamda Kumush timsollarini qiyoslab tahlil qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Donolarning aytishicha, elni ma'rifat asraydi. Shunday ekan, ustozlar zimmasiga kelajagi buyuk davlatning komil, har tomonlama barkamol vorislarni yetkazib berishdek yuksak vazifa yuklangan. O'qituvchi - ziyoli inson.

Nafaqat yosh avlodga bilim berishi, balki o'zining yurishturishi, kiyinishi, axloq- odobi, jamiyatdagi o'rni bilan ularga shaxsiy namuna, ibrat ham bo'lishi zarur.

Xulosa o'rnida, Shular bilan bir qatorda bugun o'qituvchi zimmasiga joylarda

hukumatimiz qarorlari, davlatimizning ichki va tashqi siyosati mazmun-mohiyatini aholi, o'quvchi-yoshlarga to'g'ri tushuntirish, ularni ezgu maqsadlar sari ruhlantirish singari muhim vazifalar ham yuklanganini unutmashimiz, ularni bajarishga bor bilim- tajribamizni safarbar etishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva M." Ona till o'qitish metodikasi" .T- 2017
2. Muhamedova S."Tillarni o'qitishda pedagogik texnologiyadan.T-2015
3. Jumanioyozova M., Ishmuhammedov R. Ta'limda pedagogik texnologiyalardan



4. foydalanish. –Toshkent: Iste’dod, 2012.
5. ziyo.uz
6. saviya.uz